

XORIJIY TIL O'QITUVCHISINING KASBIY KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINING PRAGMATIK JIHATI

Tajimbetova Gulmira Kenshimbaevna

Erkin tadqiqotshi

Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10631417>

Annotatsiya. *Usbu maqola bolajak chet tili oqituvchilarida pragmatic kompetentsiyani shakllantirishga bagishlangan. O'qituvchilarning ishida pragmatic kompetentsiya kasbiy aloqaning asosiy vositasi.*

Kalit sozlar: *kompetentsiya, pragmatic kompetentsiya, professional kompetentsiya, pedagogik kompetentsiya.*

PRAGMATIC ASPECT OF PROFESSIONAL COMMUNICATIVE COMPETENCE OF A FOREIGN LANGUAGE TEACHER

Abstract. *This article is dedicated to the formation of pragmatic competence in future foreign language teachers. In the work of a teacher, pragmatic competence represents the main means of professional communication.*

Key words: *competence, pragmatic competence, professional competence, pedagogical competence.*

ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *Данная статья посвящена формированию прагматической компетенции в будущих преподавателя иностранного языка. В работе учителя прагматическая компетенция представляет главное средство профессионального общения.*

Ключевые слова: *компетенция, прагматическая компетенция, профессиональная компетенция, педагогическая компетенция.*

P. Yu. Zolotovning (2020) tadqiqotiga murojaat qilsak. Mazkur tadqiqotda muallif pragmatik kompetentsiyaning tarkibiga tuzilayotgan jummalarni ularning kommunikativ funktsiyalarini va muloqot qiluvchilarning o'zaro ta'siri masalasining ijtimoiy-madaniy kontekstini hisobga olgan holda tuza olish va ulardan foydalanish qobiliyatini o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Xususan, P.Yu. Zolotov (2020) pragmatik kompetentsiyaning quyidagi tarkibiy qismlarini tasvirlaydi:

1) ijtimoiy komponent (muloqotning ijtimoiy kontekstlarini va muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy rollarini talqin qila olish qobiliyati; ijtimoiy maqbul muloqot uslubini tanlash qobiliyati);

2) sotsiolingvistik komponent (nutq aktini tahlil qila olish qobiliyati, suhbatdoshning ijtimoiy portretini yaratish uchun, ijtimoiy ma'nolar, registrning o'zgarishi va modallik); tanlangan ijtimoiy rollarga muvofiq muloqot maqsadiga erishish uchun zarur til va nutq vositalaridan foydalana olish qobiliyati;

3) ijtimoiy-madaniy komponent (madaniyatlararo va shaxslararo o'zaro ta'sir sharoitida ona tili va o'rganilayotgan tillar mamlakatlarining madaniy jihatlari to'g'risida olingan

ma'lumotlarni talqin qila olish qobiliyati; muloqot muammolarini hal qilish uchun muloqot jarayonida ona tili va o'rganilayotgan tillar mamlakatlari madaniyati haqidagi bilimlardan foydalana olish qobiliyati);

4) nutq komponenti (suhbatdoshning nutq janrlarini tanlay olishni, nutq bayonotining uyg'unligi va izchilligini talqin qila olish qobiliyati; muloqot jarayonida yuzaga keluvchi muammolarni hal qilish uchun nutq bayonotini yaratish qoidalariga muvofiq holda nutq turini tanlay olish va amalga oshira olish qobiliyati);

5) kompensator komponent (information-ma'lumot manbalaridan foydalangan holda qayta so'rash, aniqlashtirish, orqali til va ijtimoiy-madaniy bo'shliqlarni to'ldira olish qobiliyati).

Bulardan aniq bo'ladi-ki, ushbu kompetentsiyaning mazmuni Beckman modelining asosiy tarkibiy qismlariga mos keladi.

P.Y. Zolotovga ko'ra pragmatik kompetentsiya modeli (2017, 2020) har xil diskurs turlarini qurish bilan bog'liq (diskursiv kompetentsiya); turli xil kommunikativ funksiyalarni bajarish uchun bayonotni shakllantirish (funksional kompetentsiya); o'zaro ta'sir modellariga muvofiq bayonotni ishlab chiqish (nutqni sxematik qura olish kompetentsiyasi) (qarang: Zolotov 2020). Biroq, so'nggi "nutqni sxematik qura olish kompetentsiyasi" tabiiyki, interaktsionaldir (Celce-Murcia 2007).

Ilmiy adabiyotlarda "pragmatik kompetentli" va "pragmatik kompetentsiya" atamaları keng qo'llaniladi. "Kasbiy kompetentsiya" atamasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyor bo'lgan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan ma'lum kompetentsiyalar va shaxsiy fazilatlar ro'yxatini anglatadi.

Kompetentsiyalar "bilim, uquv va ko'nikmalar" nuqtai nazaridan shakllantirilishi ajablanarli emas va pedagogik universitetlar bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar kompetentsiyaga asoslangan yondashuv orqali aniqlanadi.

G.T. Maxkamovning so'zlariga ko'ra, tilni professional darajada bilish "tilning butun tizimini uning qiyosiy tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mutaxassislik sifatida chuqur bilish; nutqni ona tili va o'rganilayotgan til tuzilmalaridagi diskursni anglash va farqlarini bilish; chet tilida so'zlashuvchilar dunyosi manzarasi to'g'risida bilimlarni kengaytirish orqali bilingval ongni shakllantirish; nutq faoliyatining barcha turlari va qoidalarini, nutqning turli kommunikativ-pragmatik registrlarida lisoniy va nolisoniy xatti-harakatlarning strategiyalari va taktikalarini bilish; o'rganilayotgan til(lar) mamlakatlari hayotining turli xil muloqot vositalari va ijtimoiy-madaniy jihatlarining lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlarini bilish" (2010, 108-bet).

Professorning g'oyalariga ko'ra biz kommunikativ kasbiy kompetentsiyaning pragmatik jihati u yoki bu tarzda, xususan, nutqning o'ziga xos xususiyatlarini bilishda, nutqning turli kommunikativ-pragmatik registrlarida lisoniy va nolisoniy xatti-harakatlarning strategiyalari va taktikalarini bilishda, shuningdek, lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlarni bilishda namoyon bo'lishini aniqlasak bo'ladi.

Aynan shu jihatda biz pedagogik kompetentsiyaning pragmatik jihatining mohiyatini ko'ramiz. L.L. Tkacheva (2009. 251-bet), bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy faoliyatidagi pragmatik kompetentsiyani har xil turdagi matnlarni, shu jumladan badiiy matnlarni o'qish, shuningdek matnlar ustida ishlashda pedagogik muloqotga kirishish jarayoni bilan bog'laydi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, o'qish va tushunishning pragmatik jihati o'qituvchi

kasbida asosiy hisoblanadi, chunki kelajakdagi til mutaxassisi badiiy asar muallifning asl maqsadini anglab, keyin o'z bilimlarini boshqa odamlarga tushunarli va aniq shakllangan shaklda yetkazishi loizm bo'ladi. Shuni inobatga olgan holda, L.L. Tkacheva pragmatik kompetentsiyani o'qitishning maqsadlari sifatida quyidagilarni belgilaydi: bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini badiiy matn bilan ishlashda kommunikativ maqsadlarga erishish uchun til vositalaridan maqbul foydalanishga o'rgatish va o'qilgan matnning semantik mazmunini to'g'ri yetkazishga o'rgatish, shuningdek, ularga yordam beradigan mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish va, tabiiyki, kelajakdagi kasbiy faoliyatida boshqalarga buni o'rgatish (o'sha asar, o'sha yerda). Albatta, matn o'rganilayotgan tilga o'qitishning asosiy birligidir. Shunga qaramay, o'qituvchi ma'lum bir maqsad uchun talabalar bilan o'zaro muloqotda bo'ladi (tushuntiradi, nazorat qiladi, rag'batlantiradi va hokazo) va, albatta, tinglovchilar bilimi va ruhiyatiga ta'sir qiladi (axloqiy, ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalaydi, til o'rganishga muhabbat uyg'otadi va hokazo), bunday faoliyatda nutq orqali muloqot maqsadlariga erishish uchun harakatlar nutqning kommunikativ strategiyalaridan foydalanish orqali pragmatik jihati kuchayadi.

Shuningdek professor G.T. Maxkamova tomonidan pedagogik nutq o'ziga xos janr xilma-xilligiga ega bo'lgan nutqning pedagogik ritorikasi bilan bog'liq ekanligi ta'kidlanadi (o'sha asar, 24-27-betlar) aloqa maqsadini funktsional amalga oshirishga qarab. Professor G.T. Maxkamova o'zining monografiyasida pedagogik diskursni uch o'lchov nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi:

- 1) tildan foydalanish nuqtai nazaridan lingvistik o'lchov;
- 2) bilim, tasavvur, ma'lumot uzatish nuqtai nazaridan kognitiv o'lchov;
- 3) pedagogik muloqot vaziyatlarida kommunikatorlarning munosabatlari va o'zaro ta'sirining xususiyatlari nuqtai nazaridan interaktiv o'lchov (osha asar, 47-bet).

Yuqorida ko'rib chiqilgan o'lchovlardan kelib chiqib, biz 60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi bo'yicha tehsil olaotgan pedagogika universiteti talabalarida mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha qanday bilim, ko'nikma va malakani rivojlantirishimiz va takomillashtirishimiz kerakligini aniqlashga harakat qilamiz.

Yuqorida aytib o'tilganlarni hisobga olgan holda, bitiruvchilari egallagan bo'lishi kerak bo'lgan quyidagi ko'nikmalarni ajratishimiz mumkin:

- pedagogik faoliyatning kontseptosferasini tashkil etuvchi va metodik kategoriyalar ko'rinishidagi asosiy pedagogik tushunchalarni bilish (maqsad, mazmun, vositalar, yondashuvlar, usullar, o'qitish natijasi) shaklida shakllantiradigan asosiy pedagogik tushunchalarni bilish (qarang: Maxkamova 2019, 51-52-betlar);

- pedagogik diskurs va nutqning janr va uslub jihatidan qurilishining xususiyatlarini bilish;

- pedagogik terminologiya va nutqning pedagogik ritorikasini o'zlashtirish;

- verbal va noverbal vositalar yordamida amalga oshiriladigan kommunikativ strategiyalarni tushunish;

- o'quvchilar bilan ularning yoshi va kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik o'zaro munosabatlarni tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- matnni tushuna olish va o'qilgan matn/ma'lumotlarning semantik tarkibini to'g'ri yetkaza olish;

- motivatsion muhit yaratish, talabalar bilan muloqot qilish va talabaning xatti-harakatlariga va materialni o'zlashtirish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatish.

REFERENCES

1. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. Москва: Издательство «Советская энциклопедия», 1966.
2. Балабанова И.Я. Лингвопрагматика рекламного текста (на материале русского и французского языков) // Вестник Челябинского государственного университета, 2012, № 20 (274).
3. Гришаева Е.Б. Прагматико-функциональный подход в обучении профессионально-ориентированному иностранному языку. 2020. Режим доступа: [Pragmatiko-funktionalnyy-podhod-v-obuchtnii-professionalno-orientirovannomu-inostrannomu-yazyku.pdf](#). DOI: 10.17223/19996195/52/9
4. Золотов П.Ю. Перспективы обучения прагматической компетенции (иностранного языка) с использованием корпусных технологий. 2017 <https://tsutmb.ru/nauka/internet-konferencii/2017/8-prep-vysshey-shkoly/7/zolotov.pdf?ysclid=loftxwd5u1752844095>
5. Ткачева Л.Л. Теоретические основы формирования прагматической компетенции в курсе аспекта «Домашнее чтение» // Мир науки, культуры, образования. № 5 (17) 2009. – С. 250-254. ISSN 1991-5497. [file:///C:/Users/USER/Downloads/teoreticheskie-osnovy-formirovaniya-pragmaticheskoy-kompetentsii-v-kurse-aspekta-domashnee-chtenie%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/USER/Downloads/teoreticheskie-osnovy-formirovaniya-pragmaticheskoy-kompetentsii-v-kurse-aspekta-domashnee-chtenie%20(1).pdf)
6. Махкамова Г.Т. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов факультетов английского языка: Монография. –Ташкент: «Фан» Академии Наук Республики Узбекистан, 2010. –207 с.
7. Махкамова Г.Т. Лингводидактический потенциал речевых актов при обучении английскому языку как специальности в магистратуре // Ж. Филология масалалари. №1, 2013. –С.44-50.
8. Махкамова Г.Т. Педагогический дискурс иноязычного образования: Проблемы и решения. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2019. – 144 с.
9. Махкамова Г.Т., Ризаева С. Функциональный аспект иноязычной коммуникативной компетенции. //Хорижий тилларини уқитиш динамикаси ва уни уқитиш самадорлигини оширишнинг когнитив технологиялари: Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т.: ТДПУ, 2020. –С. 188-191.